

**GEKSAN – BENZOL VA SIKLOGEKSAN – BENZOL
SISTEMALARIGA TANLAB ERITUVCHILARNING FAOLLIGI VA
SELEKTIVLIGINI TADQIQ QILISH**

Murtazayev Feruzbek Ismatovich

doktor PhD, dotsent

*Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti,
O'zbekiston respublikasi, Qarshi shahri*

Murtazaev Feruzbek Ismatovich

PhD, Associate Professor

*Karshi Engineering and Economic Institute,
Republic of Uzbekistan, Karshi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada geksan benzol siklogeksan kabi erituvchilarni selektivlik darajasi va geksan – benzol, siklogeksan – benzol sistemalariga nisabatan erituvchilarning selektivligini haroratga bog'liqligi va uglevodorodlar faolligini koeffitsentlari oralig'i, ekstragentlarning geksan-benzol (Y_g/Y_b) va siklogeksan-benzol Y_{sg}/Y_b sistemalariga nisbatan selektivligi, molekulyar massa $\lg \left(\frac{Y_{okt}^o}{Y_{gp}} \right)$ bo'yicha selektivligi va ekstragentlarni eruvchanlik qobiliyati, aromatik uglevodorodlarni ajratib olishda keng qo'llaniluvchi ekstragentlarning fizik – kimyoviy xossalari va aromatik uglevodorodlarni eritish qobiliyati bo'yicha bir xil haroratda ekstragentlarning ketma-ketligi o'rganildi.

Abstract: in this article, the degree of selectivity of solvents such as hexane-benzene-cyclohexane and the selectivity of solvents relative to the hexane-benzene, cyclohexane-benzene systems, temperature dependence and the range of hydrocarbon activity coefficients, the selectivity of extractants in relation to the hexane-benzene (Y_g/Y_b) and cyclohexane-benzene systems Y_{sg}/Y_b , molecular mass $\lg \left(\frac{Y_{okt}^o}{Y_{gp}} \right)$ and The sequence of extractants at the same temperature was studied according to selectivity and solubility of extractants, physico-chemical

properties of extractants widely used in the extraction of aromatic hydrocarbons, and ability to dissolve aromatic hydrocarbons.

Kalit so‘zлari: geksan, benzol, siklogeksan, trimetilbenzollar, izopropilbenzol, tetrametilbenzollar, tetraetilenglikol, dietilenglikol, etilenglikol, N-metilpirrolidon, dimetilformamid, N-metilkaprolaktam.


Key words: hexane, benzene, cyclohexane, trimethylbenzenes, isopropylbenzene, tetramethylbenzenes, tetraethylene glycol, diethylene glycol, ethylene glycol, N-methylpyrrolidone, dimethylformamide, N-methylcaprolactam.

Kirish: aromatik uglevodorodlarni parafin va sikloalkan uglevodorodlaridan farqi, ularning teng molekur massada yuqori zichligi, shu bilan birga yuqori qaynash va erish haroratiga ega ekanlidigidir. 1 – jadvalda 0,133-101 kPa bosim oralig‘idagi qaynash va erish haroratlari keltirilgan [1; 3-50 b.]. Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yadroga almashinuvchining kiritilishi bilan uglevodorodning qaynash harorati oshadi, bunda erish harorati esa keskin pasayadi. Bir nechta almashinuvchili uglevodorodlar bir almashinuvchili izomer birikmalarga (masalan, ksilollar va etilbenzol, trimetilbenzollar va izopropilbenzol, tetrametilbenzollar va izobutilbenzol) nisbatan yuqori qaynash haroratini namoyon etadi [2; 22-266 b.]. Ikki va undan ko‘p almashinuvchili benzollar qatorli izomerlarga (*o*-ksilollar) nisbatan yuqori qaynash haroratiga ega bo‘lsa, nisbatan past ko‘rsatkichni almashinuvchilari simmetrik joylashganlar namoyon etadi (*p*-ksilol). Simmetrik izomerlar asosan yuqori erish haroratini namoyon etadi. Teng molekulyar massaga ega bo‘lgan benzol izomerlarining qaynash va erish harorati polisiklik aromatik uglevodorodlarnikiga nisbatan sezilarli darajada past.

Natija Geksan – benzol sistemasiga 60°C haroratda ekstragentlarning selektivlik darjasini quyidagicha: sulfolan > dimetilsulfoksid > N-formilmorfolin > trietylenglikol ≈ tetraethylenglikol ≈ dietilenglikol ≈ etilenglikol > N-metilpirrolidon > dimetilformamid > N-metilkaprolaktam.

Aromatik uglevodorodlarni qaynash va erish haroratlari [3; 3-848 b.]

| Uglevodorod | Turli bosimlarda qaynash harorati °C | | | | | | Erish harorati, °C |
|-----------------------|--------------------------------------|----------|----------|----------|----------|---------|--------------------|
| | 0,13 kPa | 1,33 kPa | 5,31 kPa | 13,3 kPa | 51,1 kPa | 101 kPa | |
| Benzol | -45* | -11,6* | 7,5 | 26,1 | 60,6 | 80,1 | 5,5 |
| Toluol | -26,1 | 6,4 | 31,8 | 51,9 | 89,5 | 110,6 | - 95,0 |
| Stirol | -1,6 | 32,8 | 60,6 | 82,5 | 122,7 | 145,2 | - 30,6 |
| Etilbenzol | -9,2 | 25,9 | 52,8 | 74,1 | 113,8 | 136,2 | - 95,0 |
| <i>o</i> – Ksilol | -3,7 | 32,1 | 59,6 | 81,3 | 121,7 | 144,4 | - 25,2 |
| <i>m</i> – Ksilol | -7,2 | 28,2 | 55,3 | 76,8 | 116,7 | 139,1 | - 47,9 |
| <i>n</i> – Ksilol | -8,1* | 27,3 | 54,4 | 75,9 | 115,9 | 138,4 | 13,3 |
| α -metilstirol | 11,6* | 48,5 | 70,6** | 99,6 | 143,0 | 165,4 | - 23,2 |
| Izopropilbenzol | 2,8 | 38,3 | 66,1 | 88,1 | 129,2 | 152,4 | - 96,0 |
| <i>m</i> – Etiltoluol | 9,4 | 45,7 | 74 | 96,4 | 137,9 | 161,3 | - 95,5 |
| <i>n</i> – Etiltoluol | 9,3 | 45,7 | 74,1 | 96,6 | 138,5 | 162,0 | - 62,4 |
| <i>o</i> – Etiltoluol | 11,9 | 48,5 | 77,0 | 99,6 | 141,6 | 165,1 | - 80,8 |



1 – rasm. Geksan – benzol (a) va siklogeksan – benzol (b) sistemalariga nisbatan erituvchilarining selektivligini haroratga bog‘liqligi: 1 – sulfolan; 2 – dimetilsulfoksid; 3 – N-formilmorfolin; 4 – trietilenglikol; 5 – tetraetilenglikol; 6 – dietilenglikol; 7 – etilenglikol; 8 – N-metilpirrolidon; 9 – dimetilformamid 10 – N-metilkaprolaktam

2 – jadval

Uglevodorodlar faolligini koeffitsentlari oralig‘i, ekstragentlarning geksan-benzol (Y_g/Y_b) va siklogeksan-benzol Y_{sg}/Y_b sistemalariga nisbatan

selektivligi, molekulyar massa $\lg \left(\frac{Y_{okt}^o}{Y_{gp}} \right)$ bo‘yicha selektivligi va ekstragentlarni

eruvchanlik qobiliyatni $1/Y_b$

| Ekstragent | T, °C | Y_g | Y_{gp} | Y_{okt} | Y_{sg} | Y_b | Y_g/Y_b | Y_{sg}/Y_b | $\lg \left(\frac{Y_{okt}^o}{Y_{gp}} \right)$ | $1/Y_b$ |
|--------------------|--------------|-------------------------|----------------------------|-----------------------------|----------------------------|-------------------------|-----------------------------|--------------------------------|---|---------------------------|
| Sulfolan | 30 | 72,0 | 99,0 | 141 | 33,8 | 2,43 | 29,6 | 13,9 | 0,154 | 0,412 |
| | 60 | 44,0 | 60,0 | 80,1 | 23,0 | 2,38 | 18,5 | 9,66 | 0,125 | 0,420 |
| | 80 | 38,4 | 50,7 | 65,6 | 19,9 | 2,49 | 15,4 | 7,99 | 0,112 | 0,402 |
| N-Formilmorfolin | 30 | 34,64 | 46,68 | 63,35 | 17,90 | 2,03 | 17,1 | 8,82 | 0,133 | 0,493 |
| | 61,7 | 24,67 | 32,06 | 41,78 | 13,77 | 1,99 | 12,4 | 6,92 | 0,115 | 0,503 |
| Dimetilsulfoksid | 20 | 92,0 | 149 | 220 | 46,0 | 3,83 | 24,0 | 12,0 | 0,169 | 0,261 |
| | 40 | 64,0 | 95 | 136 | 33,0 | 3,20 | 20,0 | 10,3 | 0,156 | 0,312 |
| | 60 | 48,0 | 65 | 87 | 25,0 | 3,03 | 15,8 | 8,25 | 0,126 | 0,330 |
| Etilengilikol | 20 | 781 | 1370 | 2380 | 278 | 31,6 | 24,7 | 8,80 | 0,240 | 0,032 |
| | 40,8 | 550 | 930 | 1440 | 258 | 33,3 | 16,5 | 7,75 | 0,190 | 0,030 |
| | 60 | 308 | 457 | 663 | 188 | 32,0 | 9,62 | 5,88 | 0,162 | 0,031 |
| Dietilengilikol | 25 | 105,8 | 164,5 | 260 | 71,7 | 6,41 | 16,5 | 11,2 | 0,199 | 0,156 |
| | 60 | 64,0 | - | - | - | 6,5 | 9,85 | - | - | - |
| | 100 | 42,0 | - | - | - | 6,2 | 6,77 | - | - | - |
| Trietilengilikol | 30 | 60,6 | 94,5 | 139 | 29,3 | 3,86 | 15,7 | 7,59 | 0,168 | 0,259 |
| | 80 | 30,4 | 40,8 | 54,5 | 15,2 | 3,02 | 10,1 | 5,03 | 0,126 | 0,331 |
| Tetraetilengilikol | 30 | 37,7 | 57,9 | 85,8 | 18,3 | 2,46 | 15,3 | 7,44 | 0,171 | 0,407 |
| | 70 | 24,8 | - | - | - | 2,48 | 10,0 | - | - | 0,403 |
| N-Metilpirrolidon | 30 | 14,2 | 17,7 | 21,6 | 8,52 | 1,08 | 13,1 | 7,89 | 0,086 | 0,926 |
| | 60 | 9,9 | 11,5 | 13,1 | 6,30 | 1,08 | 9,17 | 5,83 | 0,057 | 0,926 |
| N-Metilkaprolaktam | 20 | 6,8 | 7,9 | 9,1 | 4,2 | 0,85 | 8,0 | 4,9 | 0,061 | 1,176 |
| | 40 | 6,0 | 6,8 | 7,1 | 4,0 | 0,85 | 7,1 | 4,7 | 0,019 | 1,176 |
| | 60 | 5,4 | 5,8 | 6,7 | 3,3 | 0,87 | 6,2 | 3,8 | 0,063 | 1,149 |

3 – jadvalda sanoatda keng qo‘llaniluvchi ekstragentlarning fizik – kimyoviy xossalari keltirilgan.

3 – jadval

Aromatik uglevodorodlarni ajratib olishda keng qo‘llaniluvchi ekstragentlarning fizik – kimyoviy xossalari

| Ekstragent | ρ_4^{20} | Qaynash harorati, °C | Erish harorati, °C | η (20 °C da), mPa·s | $C_p(20 \text{ }^{\circ}\text{C} \text{ da}),$ kj/(kg·K) | $H_{\text{bug}}(20 \text{ }^{\circ}\text{C} \text{ da}),$ kj/mol | σ (20 °C da), mN/m | FIK, mg/m³ |
|--------------------|-------------------|----------------------|--------------------|-----------------------------|---|---|------------------------------|---------------|
| Sulfolan | 1,26 (30 °C) | 285 | 28,4 | 10,0 (30 °C) | 1,34 (30) | 61,5 (200 °C) | 60,33 (40 °C) | 50 |
| Etilengilikol | 1,1135 | 197,6 | -12,6 | 19,9 | 2,40 (22 °C) | 52,5 (197,6 °C) | 48,43 | 0,1 |
| Dietilenglikol | 1,1161 | 245,8 | -7,8 | 35,7 | 2,093 | 62,0 | 48,5 (25 °C) | 0,2 |
| Trietilengilikol | 1,1242 | 285 | -4,3 | 49,0 | 2,17 | 71,6 | 45,57 | - |
| Tetraetilengilikol | 1,1247 | 327,3 | -6,2 | 61,3 | 2,14 | 88,8 | 45 (25 °C) | - |
| N-Formilmorfolin | 1,1528 | 244 | 20-21 | 9,37 | 1,97 | 46,06 | - | - |
| Dimetilsulfoksid | 1,0960 (25 °C) | 189 | 18,45 | 2,473 | 2,05 | 57,28 | 43,49 | 20 |
| N-Metilpirrolidon | 1,0328 | 202 | -24 | 1,65 (25 °C) | 1,97 | 53,06 | 39,91 | 100 |
| N-Metilkaprolaktam | 1,0129 | 237 | 6,0 | 5,61 | 1,95 | 61,6 | 39,9 | - |
| Demetilformamid | 0,9425 (25 °C) | 153 | -61 | 0,80 | 2,05 | 47,4 | 36,76 | 10 |

Siklogeksan – benzol sistemasida ham selektivlik darajasi bo‘yicha ekstragentlar deyarli xuddi shunday ketma-ketlikda joylashadi, faqat N-metilpirrolidon va dimetilformamid glikollarga yaqin joylashadi.

Aromatik uglevodorodlarni eritish qobiliyati bo‘yicha bir xil haroratda ekstragentlarning ketma-ketligi quyidagicha: N-metilkaprolaktam > N-metilpirrolidon > dimetilformamid > N-formilmorfolin > sulfolan ≈ tetraetilenglikol > dimetilsulfoksid > trietilenglikol > dietilenglikol > etilenglikol.


Past erish qobiliyati kuchli assotsiyalangan erituvchilar – glikollar, dimetilsulfoksidiga xosdir.

Ushbu erituvchilar assotsiyalangan ekstragentlar strukturasida bo'shliqlarning hosil bo'lishi solishtirma entalpiya ko'rsatkichini kattaligi va molyar hajmlarning ortishi bilan uglevodorod gomologlarini eritishdagi energiya xarajatlarini keskin ortishi, molekulyar massa bo'yicha ham yuqori selektivlik namoyon etadi.

2 – jadvalda qator dunyo olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlari natijalari asosida shakllantirilgan aromatik uglevodorodlarni ajratib olish uchun tavsiya etilgan ekstragentlarning selektivligi va eritish qobiliyatları ko'rsatkichlari keltirilgan. Yuqori selektivlik va erituvchanlik, molekulyar massa bo'yicha past selektivlikka ega ushbu erituvchilar – sanoat miqiyosida qo'llaniluvchi sulfolan va N-formilmorfolindan qolishmaydi. Ayniqsa N-metilmorfolin-3, N-asetilosazalidin, N-asetilosazalidin-2, tietan-1-oksid va tiofan-1-oksid, 2-metiltietan-1,1-dioksid, metilidenglitserinlarni sianetilli hosilalari (glitserinni formaldegid bilan kondensatsiyasi mahsulotlari), levulinonitril kabi ekstragentlarning selektivligi to'yingan uglevodorodlarning aromatik uglevodorodlari bilan model aralashmalari va katalistik riforming jarayoni katalizati fraksiyalari bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalari bilan tasdiqlangan [4; C. 92-94].

Tetragidrofurfuril spirtini sianetillash mahsuloti bo'lgan 2-tetragidrofurfurolosipropionitril aromatik uglevodorolarni eritish qobiliyati bo'yicha N-metilpirrolidon va N-metikaprolaktamga nisbatan yuqori ko'rsatkichni namoyon etadi, shu bilan birga uning etilenglikol yoki suv bilan aralashmasi riforming katalizati tarkibidagi aromatik uglevodorodlarni ajratib olishda yuqori samaradorlik namoyon etadi.

Yuqorida taklif etilgan erituvchilarning yuqori selektivligi, ularning molekulasida zaryadlarni teng taqsimlanmasligiga olib keluvchi va erituvchilarni aromatik uglevodorodlar bilan birikib π -majmularini hosil qiluvchi yuqori elektronakseptor qobiliyatiga ega, yuqori polyarli elektron-akseptor gruppalarini va geteroatomlarning bo'lishidadir.



2 – rasm. Selektiv erituvchilarni geksan – benzol sistemasiga nisbatan selektivligini erituvchi molekulalarining zaryadlarini teng taqsimlanmaganligiga bog‘liqligi

Turli sinfga mansub 30 ta organik erituvchini 30°C haroratda geksan-benzol sistemasiga nisbatan selektivligi va $(\Sigma_{q_i}^+) / V_i$ kriteriyasi, ya’ni erituvchilarning kuchlanish maydoni sifatida qo‘llanilgan ko‘rsatkichlarni qoniqtiruvchi korrelyatsiyasi aniqlangan (2 – rasm) Erituvchilarni ushbu rasmdagi raqami 3. – jadvalda keltirilgan raqamlarga mos keladi.[5; - C. 3-5]

Xulosa

1. aromatik uglevodorodlarni turli bosimlarda qaynash va erish ko‘rsatkichlari, ularning bug‘ bosimlarini o‘lchash uchun konstantalari, aromatik uglevodorodlarni kritik holatdagi ko‘rsatkichlari, suyuq aromatik uglevodorodlarni issiqlik sig‘imi tahlil qilinib, turli aromatik uglevodorodlarni gaz holatidagi termodinamik xossalari aniqlandi.

2. Aromatik uglevodorodlarni erish va azeotrop hosil qilish ko‘rsatkichlari aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichlar aromatik uglevodorodlarni riforming katalizati tarkibidan ekstraksiya usulida ajratib olishda muqobil ekstragent tanlash va jarayon sharoitlarini aniqlashda qo‘llaniladi.

3. Geksan – benzol va siklogeksan – benzol sistemalariga turli selektiv erituvchilarni faolligi va selektivligi aniqlandi. Bunda ekstragentlar sifatida amaliyotda qo‘llanilayotgan va yangi taklif etilayotgan ekstragentlar va ularning turli nisbatlardagi arashmalari qo‘llanildi.

4. Geksan – benzol sistemasiga 60°C haroratda ekstragentlarning selektivlik darjasini aniqlandi: sulfolan > dimetilsulfoksid > N-formilmorfolin > trietylenglikol ≈ tetraethylenglikol ≈ dietilenglikol ≈ etilenglikol > N-metilpirrolidon > dimetilformamid > N-metilkaprolaktam.

5. Bir xil haroratda ekstragentlarning aromatik uglevodorodlarni eritish qobiliyati bo‘yicha faolligi tajriba-sinovlar asosida aniqlandi: N-metilkaprolaktam > N-metilpirrolidon > dimetilformamid > N-formilmorfolin > sulfolan ≈ tetraethylenglikol > dimetilsulfoksid > trietylenglikol > dietilenglikol > etilenglikol.

6. Turli sifga mansub 30 ta organik erituvchini 30°C haroratda geksan-benzol sistemasiga nisbatan selektivligi va $(\Sigma_{q_i}^+)/V_i$ kriteriyasi, ya’ni erituvchilarning kuchlanish maydoni sifatida qo’llanilgan ko‘rsatkichlarni qoniqtiruvchi korrelyatsiyasi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Безрукова С.А. Ароматические углеводороды. Способы получения. Химические свойства. Правила ориентации в ароматическом ядре: учебное пособие.– Северск: Изд-во СТИ НИЯУ МИФИ, 2011. – 50 с.
2. Березин Б.Д. Курс современной органической химии: учеб. пособие для вузов/ Б.Д. Березин, Д.Б. Березин. – М.: Высшая школа, 2001. – 768 с.
3. Шабаров Ю.С. Органическая химия: учебник для вузов/ Ю.С. Шабаров. – М.: Химия, 2002. – 848 с.
4. Рахимов Г.Б., Каршиев М.Т., Муртазаев Ф.И. Разработка технологии и процесса очистки природного газа от сернистых соединений// Universum: технические науки: научный журнал. – Москва, 2021.- № 5 (86). - С. 92-94.
5. Рахимов Г.Б., Муртазаев Ф.И. Присадки, улучшающие показатели дизельного топлива// «School of Science»– Москва 2019. - № 6 (17). - С. 3-5.